
MUROJAATGA MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda "Chinigaron mahallasi fuqarolari murojaat qilishmoqdaki, ular ko'rsatgan nomzod negadir saylov komissiyasi tomonidan qabul qilinmayotir..." nomli murojaat yuzasidan Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish hamda saylovni tashkil etishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi quyidagilarni ma'lum qiladi. Rishton tumanida "Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida Mazkur muhim tadbirni ochiq va oshkora o'tkazish maqsadida tumanimizda Rishton tumani Kengashining qarori bilan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun komissiya tuzildi va u o'z faoliyatini boshladi. Mazkur komissiya tarkibiga deputatlar, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritildi. Saylovga ko'maklashuvchi komissiya a'zolari mahallalarda bo'lishib, ushbu muhim tadbirning ahamiyati, mahalla institutini yanada takomillashtirish, oila va jamiyat taqdirida uning ahamiyatini oshirish yuzasidan tushunchalar berishdi. Shuningdek, komissiya a'zolari o'zi birlashtirilgan hududda ish faoliyat boshladi va saylovni yuqori saviyada o'tkazish uchun keng ko'lamdagi ishlarni olib bormoqda. Chinigaron mahalla Fuqarolar yig'inlari raisligi uchun bosha nomzodlar qatori Shokirjon Qodirovning nomzodi ham tasdiqlangan. Endi Shokirjon Qodirov 1 iyun kuni bo'lib o'tadigan saylovda ishtirok etishi mumkin.

2022-05-16 16:09:13